



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

HERMANN HESSE IJODXONASI VA TASVIR RUHIYATI YAXLITLIGI

Abdullayeva Ulfat Turaxonovna

Toshkent davlat agrar universiteti, kafedra mudiri, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi, shoir va esseist Hermann Hesse ijodi hamda uning “Soyalar o‘yini” hikoyasi talqin etiladi. Maqolada yozuvchining adabiyotga kirib kelishi, jahon adabiy makonida tutgan o‘rni, tafakkurining kengligi va hikoya yaratish mahorati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, obraz, peyzaj, syujet, talqin, idrok, mantiq, shaxs.

ТВОРЧЕСКАЯ ЛАБОРАТОРИЯ ГЕРМАНА ГЕССЕ И ЦЕЛОСТНОСТЬ ОБРАЗНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Абдуллаева Ульфат Турахоновна

Ташкентский государственный аграрный университет, заведующая кафедрой, доцент

Аннотация

В данной статье рассматривается творчество писателя, поэта и эссеиста Германа Гессе, а также даётся интерпретация его рассказа «Игра теней». В работе исследуются вхождение автора в литературу, его место в мировой литературе, широта мышления и мастерство создания художественного рассказа.

Ключевые слова: рассказ, образ, пейзаж, сюжет, интерпретация, восприятие, логика, личность.

HERMANN HESSE’S CREATIVE LABORATORY AND THE INTEGRITY OF IMAGERY PSYCHOLOGY

Abdullayeva Ulfat Turakhonovna

Tashkent State Agrarian University, Head of Department, Associate Professor

Abstract

This article examines the works of the writer, poet, and essayist Hermann Hesse, as well as provides an interpretation of his short story “The Game of Shadows.” The study explores the author’s entry into literature, his place in world literature, the breadth of his thinking, and his mastery of short story writing.

Keywords: short story, imagery, landscape, plot, interpretation, perception, logic, personality.

Dunyo adabiyoti xazinasidan munosib o‘rin egallagan, eng ko‘p mutolaa qilinadigan adiblardan biri Herman Hesse ijodiyoti haqida so‘z borganda, avvalo, uning metin irodasi va “dunyoga sig‘maslik” xarakteri o‘quvchi ko‘zi oldida gavdalanadi. Hesseshunoslik XX asrning o‘rtalarida avj pallasiga chiqarkan, u insoniyat yozuvchisi, tafakkur sohibi, hayoti “bir marom”da kechmagan inson sifatida qadrlanadi. Qalbida suyukli yor, Vatanga muhabbat, do‘stlarga sadoqat, ota-onaga hurmat tuyg‘usi uning pokiza ruhidan to‘kilgan asarlaridayoq aytib turibdi. U 1877-yilning 2-iyulida Germaniyaning Baden-Vyurtemberg zaminidagi Kalv shaharchasida dunyoga kelgan.

Adibning ko‘plab roman, qissa, hikoyalari, she‘rlari, siyosiy va adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlari hozirga qadar jahon o‘quvchilarining e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. Uni jahon munaqqidlari “romantizm oqimining so‘nggi jangchisi” deya e‘tirof etishi bejiz emas.

Hermann Hesse badiiy asarlarida o‘z zamondoshlari L. Tolstoy, F. Dostoyevskiy, J. Joys, F. Kafka singari ijodkorlarni yuksak qadrlaydi. Adib hikoyalarida tabiat insonning butun vujudiga toza ruh, pokiza tuyg‘u berib turadigan Alloh mo‘jizasi deya qaraladi. U hikoya, esse, qissa hamda romanlarida o‘ta mukammal qalb sohibining yuragidan to‘kilayotgan dardu hasratlarni aks ettiradi. Adibning hayotni o‘yinchoq emas, balki o‘zlikni topish maskani deya ta’riflashining o‘ziyoq uning keng tafakkur sohibi ekanini dalolatlaydi.

Yozuvchining hikoya janriga qo‘shgan hissasi shundan iboratki, u qanday va qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hamisha olovli yuragining muhim bir qirralarini hayot va adabiyot atalmish mo‘jaz maskanga joylab ketganligi yaqqol ko‘rinadi. Adib Hermann Hessening “Soyalar o‘yini” nomli hikoyasi ana shunday ulug‘ maqsadda dunyo yuzini ko‘rgan:

“Keng sahniga yarqiroq tosh yotqizilgan qasrning ulkan derazalari Rayn daryosi va qamishzor botqoqliklar hamda qo‘g‘azorlar, o‘tloqlar va suvli, bahavo bir maskan tarafga qaragan, muallaq egik nafis toqi yanglig‘ cho‘zilib ketgan ko‘kimtir o‘rmon tog‘lari uzra bulutlar karvoni suzib yurar, olisdan katta-kichik qasrlar va qo‘rg‘onlar fyon* shamolida go‘yo yengil tebrangandek oqarinqirab ko‘zga tashlanadi. Ulkan binoning old qismi ohista oqayotgan suv yuzida xuddi sho‘x juvondek o‘ynoqlab, tovusday tovlanadi. Atrofdagi turli xil manzarali butalarning och yashil tusdagi shoxlari suvga tegib osilib yotar, qasr devori tevaragida esa oq rangga bo‘yalgan ko‘ngilochar gondola (Venetsiya qayig‘i – tarj.)lar yengil chayqalib turardi. Qasrning ana shu ochiq kungay tarafida hozir hech kim yashamasdi. Baronessa ketib qolganidan buyon xonalar huvillab yotar, faqatgina eng kichik hujrada hamon shoir Floribert istiqomat qilardi. Xonim o‘z eri va saroy sha’niga dog‘ tushirib g‘oyib bo‘lgan, endi uning ilgari ko‘p sonli quvnoq ahli-a’yonlaridan, oq rangli gondolalar-u kamgap, kamsuqum shoirni hisobga olmaganda, deyarli hech qanday nom-nishon qolmagandi.”

Hikoyaning asl mohiyati shundan iboratki, yozuvchi kamgap, kamsuqum shoir Floribertning hayotini, qasrdan chiqmasdan shu yerda yashab ijod etishini, turmushi o‘xshamagan bu beozor insonning tabiatida yolg‘izlik hukm surishini tasvirlaydi. Hikoya qahramoni o‘ta kamtarligi bilan o‘sha yerdagi odamlarda boshida ham, hikoya oxirida ham yaxshi taassurot uyg‘otadi. Hikoyada uchta syujet chizig‘i bor. Birinchisi, shoir Floribertning dardu tashvishi, odamlarga yaxshilik ulashishi, ko‘nglidagi muhim tuyg‘ularni tabiat bilan omuxtalikda tasvirlashida ko‘rinadi. Ikkinchisi, uning turmushidagi yolg‘izlik hamda sukunatni faqat Yaratgandan bo‘lak hech kim bilmasligidadir. Uchinchisi esa odamlarning tobora befarq bo‘lib, hayot kechirishga o‘rganib borishida namoyon bo‘ladi. Hermann Hessening “Soyalar o‘yini” bir qarashda romantizm va realizmning qorishig‘idan bunyod bo‘lgan hikoyadek taassurot qoldiradi. Ayni damda, inson qalbining umidlari so‘ngan, singan sari kechirimlilik kayfiyatiga tushib qolishi tasvirlanadi.

Ayonki, hikoya janri qisqa va lo‘ndaligi bilan boshqa adabiy turlardan tamomila farqlanadi. Shunday ekan, professor D. To‘rayev qayd etishicha: “O‘zbek badiiy nasri keyingi yillarda hayotiy mavzular, ijodiy uslub rang-barangligi, ruhiy va falsafiy tahlil, xarakterlar talqini borasida jiddiy yangilanishlar, o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Adabiy tanqidchilikdagi nazariy mulohazalarda an’anaviy proza va modern adabiyot degan tushunchalar tez-tez tilga olinmoqda. Xususan, G‘arb adabiyotidagi simvolizm va syurrealizm kabi adabiy oqimlarga, Frans Kafka, Albert Kamyu, Jan Pol Sartr, Luis Borxes, Jeyms Joysga ergashgan o‘zbek adiblarining asarlari modern prozaga aloqador baholanmoqda.”

XX asrning 60-yillariga kelib hikoya janri G‘arb adabiy-estetik tafakkurida katta “burilish” davrini boshlab berdi. Hermann Hessening “Soyalar o‘yini” hikoyasidagi voqelik o‘zbek adabiyotidagi ko‘plab yozuvchilarga ta’sir etgani bor gap. Masalan, u Isajon Sultonning “Toshkelinchak”, “Oydinbuloq”, “O‘rmondagi kulba”, “Qismat” hikoyalarini yodga soladi. Shuningdek, Hermann Hesse voqelikni ingliz adiblaridan boshqacharoq shaklda yoritadi. Masalan, voqelikning boshlanmasi sekinlashgan tugun asosida quriladi, ya’ni birdaniga “o‘ldi”, “tug‘ildi”, “baxtga erishdi”, “ayrildi” kabi keskin so‘zlar bilan boshlanmaydi. Ikkinchidan,

hikoyalarida sokin ruh hukmron. U qahramonlarini voqelik oqimi bo'ylab tushuntirib, o'quvchisiga tanishtirib boradi. Buni quyidagi lavhada ham ko'rish mumkin:

“Mehmonning tashrifidan maqsadi ko'proq ko'ngil xushi bo'lgan chamasi, birinchi haftadayoq kelganiga pushaymon bo'la boshladi. Uka akasining og'zini poylar, biroq u ketish haqida so'z ham ochmasdi. Buning boisi bor edi – u Agnes xonimni ko'rib qolib, oromini yo'qotgandi.

Oradan ko'p o'tmay, go'zal ayol xizmatkorining egnida yangi ko'ylak paydo bo'ldi, buni unga albatta mehmon baron tuhfa qilgan edi. Yana hayal vaqt o'tmasdan, cho'ri xotin xiyobon devori yonida mehmonning shaxsiy xizmatkori qo'lidan guldasta bilan maktublarni qabul qilib oldi. Bir-ikki kun o'tib-o'tmay, mehmon baron o'rmondagi uychada Agnes xonim bilan uchrashib, uning nozik qo'lidan, yupqa lablaridan va oppoq bo'ynidan o'pa boshladi... Shundan keyin qishloq yo'lida sohibjamol ayolni har gal uchratganida boshidan qalpog'ini olib salomlashadigan, u esa o'n yetti yashar qiz kabi uyalib, rahmat aytadigan bo'ldi. Oradan ko'p vaqt o'tmadi, bir kuni oqshom mehmon baron o'zi yolg'iz xayol surib o'tirgandi, kutilmaganda daryo bo'ylab suzib borayotgan qayiqni ko'rib qoldi. Unda eshkakchi bilan bir ayol ham bor edi. Ular kim bo'ldiykin? Afsuski, g'ira-shirada aniq taniyolmadi. Bir-ikki kun o'tib, sir oshkor bo'ldi-qo'ydi. Qoramtus Rayn daryosi bo'ylab suzib borib, sohildagi qamishzor ortida ko'zdan g'oyib bo'lganlar... uning o'z ukasi bilan o'sha... go'zal ayol ekan.”

Hikoya syujetida “qotil kim, qotillikni kim qilgan?” degan savol o'z-o'zidan tug'ilishi tabiiy, albatta. Javob shundayki, Rayn daryosidagi qasrda istiqomat qilayotgan vaqti shoir Floribertning betartib ukasi keladi. Bu yerda ismsiz qahramonlar ham bor. Ayniqsa, Agnes xonimni ko'rgan juda ko'p erkaklarning unga darhol ishq tushib qolishi yozuvchi tomonidan tasvirlanadi. Biroq bu yerda adib boshqa masalani yuzaga chiqaradi. Agnes xonimni esa mijg'ov uka va mehmon ismli “sir” tutilgan qahramon har kuni sayrga chaqiradi yoki ular uni o'z nafsini yo'lida bezovta qiladi. Floribertning qotilligi dahshatli tarzda tasvirlanadi va bu yerda ko'plab masalalar ochiq qilinadi. Hikoyada A voqea sodir bo'lishi oldidan B voqea sodir bo'lishi yoki syujet dinamikasi o'zining kulminatsiyasiga chiqishini tayin etadi.

Hikoyada atirgul ishqida yongan ayol taqdiri, Floribertning suyuqli ruhiy mahbusasi, ijtimoiy dard, nafs, odamlarning shahvoniy tutumlari o'z yechimi tomon harakatlanadi. Hikoya har bir tasvirda murakkab epizodlarni yuzaga chiqargan. Ayni damda, hayot va uning ajralmas qismi yosh shoirni bu hayotdan olib ketadi.

“Hammayoq qorong'ilik chodiriga burkandi. Shu payt uy burchagida nogoh soya ko'rindi, kimdir oyoq uchida asta yurib kela boshladi. Boshidagi shlyapasini peshonasigacha tushirib olgan, nega bunday qildiykin, axir o'zi shundoq ham qop-qorong'i, bunga hojat yo'q ediku. O'ng qo'lida guldasta ko'tarvolgan, oq atirgullar xira yiltirardi. Poyloqchi hushyor tortib, miltiq tepkisini ko'tardi. Noma'lum kishi to'xtab, hadiksiraganday yuqoriga qaradi. Uning hech qayerida chiroq ko'rinmasdi. So'ng u eshikka yaqin bordi-da, engashdi va temir tutqichni o'pib qo'ydi. Xuddi shu lahzada gumburlab o'q ovozi yangradi, u to xiyobon ichkarisiga qadar aks-sado berdi. Qo'lida atirgul tutgan kishi bexosdan tizzalab, shag'al ustiga chalqanchasiga quladi, yotgan joyida xiyol tipirchilab, so'ng qimirlamay qoldi. Mergan yashiringan joyidan jilmayib, bir oz kutdi, hech zog' ko'rinmadi. Chor-atrofga yana sukunat cho'mdi. U yoq-bu yoqqa alanglab, asta yerda yotgan kimsaga yaqinlashdi, uning shlyapasi sal nariga uchib tushgandi. Egilib qaragan edi, shoir Floribertni tanib qoldi.

– Eh, buni qara, ana xolos! – ixrab yubordi u beixtiyor.”

“Soyalar o'yini” hikoyasida adib yana bir jihatga katta mantiqiy bog'lam biriktiradi. Unda ham bo'lsa, yozuvchining har qanday odam o'z qalbining ishonchli kishisi bilan yashashi, unga talpinishi, ayol zotiga hech qachon ishonch yo'qligi, erkak esa mayl-istakdan nariga o'tmasligini tushuntirishidadir. “Badiiy yetuklik ijodkorda birdaniga shakllanadigan jarayon bo'lmay, u yozuvchidan uzoq yillik o'qish, o'rganish, izlanishlar va tinimsiz mehnat qilishni talab etadi. Bunda yozuvchi o'zi mansub davr badiiy-estetik qarashlarini, o'z xalqining ko'p asrlar

davomida orttirgan tajriba, bilim, ko‘nikma, malaka va, albatta, ideallarini puxta bilishi hamda milliy mafkurasini to‘g‘ri anglashi shart bo‘ladi. Shuning uchun yetuk shoir yoki yozuvchi bir necha yilda paydo bo‘lib, xalqqa kamarbasta bo‘la olmaydi. Avval, ishora qilinganidek, badiiy puxta asar yaratish ko‘nikmasi shakllanishi iste‘dod, ilhom, tinimsiz mehnatni talab etadi. Uzoq yillik izlanish, ijod qilish ham har bir yozuvchida turlicha kechishi tabiiy.”

Professor Q. Yo‘lchiyev haqli ravishda e‘tirof etganidek, hikoya yoki roman, qissa muallifi asrlar davomida qo‘lga kiritilgan boy ijodiy tajribani o‘zining qalb shuuri bilan namoyon etuvchi, asl haqiqatni ayta olish qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi o‘rtadagi odamdir.

Negaki, hikoya voqeligi qavatma-qavat “yurish”larni taqozo etadi. Chunki bosh qahramon ruhiyatining, ya‘ni shoirning ijtimoiy himoyasizligi halokatga duchor bo‘lgan vaqt suronlarida inqirozga yuz tutishini dalolatlaydi.

Xulosa shuki, har qanday davr yozuvchisining o‘z dasturlari, ijodiy tutumlari bo‘ladi. I. Sulton o‘z davrining mashhur yozuvchilaridan biridir. Hermann Hesse esa dunyo adabiyotiga ana shunday yuzlab nodir durdonalari, betakror esselari va she‘rlari bilan o‘z hissasini qo‘sha oldi. Mana shu tamoyil yozuvchining ijtimoiy mavqeida buyuk bir insoniyat sevgisiga musharraf bo‘lganligini kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hesse H. Soyalar o‘yini: tarjima asar.
2. Hesse H. Tanlangan asarlar. — Moskva: Xudozhestvennaya literatura, 1982.
3. Hesse H. Steppenwolf. — New York: Modern Library, 2002.
4. Tolstoy L. Adabiyot va san‘at haqida maqolalar. — Moskva: Nauka, 1984.
5. Dostoevsky F. Tanlangan asarlar. — Moskva: Pravda, 1985.
6. Kafka F. Jarayon (Der Prozess). — Moskva: AST, 2006.
7. Joyce J. Ulysses. — London: Penguin Books, 2000.
8. To‘rayev D. O‘zbek nasrida zamonaviy jarayonlar. — Toshkent: Fan, 2015.
9. Yo‘lchiyev Q. Badiiy ijod va mahorat. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
10. Isajon Sulton. Tanlangan hikoyalar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.